

O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQASI MADANIYATI TARIXIDAN

Samiyeva Mehriniso Azimovna

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o‘qituvchisi

Istamova Yulduz Latif qizi

Buxoro davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada Sharq xalqlarining musiqiy merosi maqom yaratilish tarixi, ulug‘ olim Mirzo Ulug‘bek Tarag‘ay va yana bir qator olimlarimizning asarlarida maqom nomlari, ijro kuylari haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: maqom, san‘at, kuy-qo‘shiq, vatanparvarlik, fuqarolik hissiyoti, ijro uslubi, ajdodlar merosi, madaniy meros, mafkuraviy sifat, maqom san‘ati.

O‘zbek mumtoz musiqa madaniyati ko‘p asrlik tarixga ega. Ko‘pgina sozanda va xonandalar avlodining faoliyatida qaror topgan xalq hamda og‘zaki an‘anadagi professional musiqa san‘ati bu haqda guvohlik beradi. Bugungi O‘zbekiston hududida O‘rta Osiyo xalqlari ajdodlari yaratgan qadimgi sivilizatsiya mavjud bo‘lgan arxeologiya ma‘lumotlari, tasviriy san‘at asarlari, sharqshunoslarning yangi tadqiqotlari va nihoyat o‘rta asrdagi O‘rta Osiyo olimlarining musiqiy risolalari tarjimai, o‘zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonini tasavvur qilishimizga yordam beradi.

O‘zbek xalqi ajdodlarining musiqa sarchashmalari O‘rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar, birinchi navbatda tojik xalqi ijodi bilan mustahkam bog‘langan. Bu musiqa asarlarning X-XI asrgacha o‘zida bir butunlikni ifoda etadi, keyinchalik u o‘zbek va tojik musiqa madaniyatlarining shakllanishi uchun umumiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalq musiqa ijodi - xalq og‘zaki ijodi bilan birga rivojlanib borayotgan xalq vakillari tomonidan yaratilgan turli musiqiy asarlar majmui hisoblanadi. Xalq musiqa ijodiyoti har bir xalqning urf-odatlarini, tafakkuri, orzu-umidlari, mehnati, milliy musiqa an‘analarini ifodalaydi. U turli shakl va mazmunga ega va bastakorlarning ijodiy manbai hisoblanadi. Shuning uchun xalq musiqasi kasbiy musiqa bilan bog‘liq holda rivojlanadi. Qadim zamonlardan hanuzgacha xalq musiqasining targ‘ibotchilari xonandalar, sozandalar, baxshilar bo‘lgan.

“O‘zbek xalq musiqa ijodi – musiqa san‘atining eng qadimgi ildizlaridan bo‘lib, har bir xalqning o‘tmishidan darak beruvchi, tarixi, madaniyati va an‘analarini o‘zida ifoda etuvchi bebaho xazinadir. O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq og‘zaki ijodi, xalq mumtoz musiqasi, an‘anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keladi”¹.

Xalqimizning ehtiyojlarini qondirish jarayoni (mehnat, marosim va boshqalar) da yuzaga kelgan xalq musiqa ijodi (musiqiy folklor) va og‘zaki an‘anadagi professional musiqa (mumtoz musiqa,

¹ Nurmatov H., Yo‘ldosheva N.. O‘zbek xalq musiqa ijodi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent –2007-yil

bastakorlik) qatlamlariga ajratilgan musiqa ijodiyoti unitilmas bir jarayondir. Mazkur xalq og'zaki an'anadagi musiqa ijodkorlari ommaviy badiiy ongning xususiyatlariga izchil tayanib, muayyan davr, uslub va boshqalarning estetik qonunlari, ijodiy qoidalariga qat'iy bo'ysunadi. Shu nuqtai nazardan og'zaki an'anadagi musiqalar individual obrazlar yaratishga qaratilgan kompozitorlik ijodidan farq qiladi. O'z tabiatiga ko'ra, og'zaki an'anadagi musiqa nota yozuvida "mustahkamlangan" mualliflik asarlardan emas, balki og'zaki shaklda, avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan namunalardan iborat bo'ladi. Mazkur namunalarning badiiy ifodasi turli jarayonlar, o'ziga xos yo'llar orqali gavdalanadi. Ustozlardan bevosita eshitib o'rgangan namunalarga shogird sozanda xonandalar o'z qissalarini qo'shadilar, yoinki boshqacha variant (yo'l) lar yaratib, ijro etadilar. Musiqa merosini xalq musiqa ijodi (mehnat va marosim qo'shiqlari, yalla, lapar, termalar, o'yin-raqs va lirik kuylar kabi) hamda og'zaki an'anadagi professional musiqa (maqom, ashula, cholg'u yo'llari va boshqalar) janrlari tashkil etadi.

Zaminimizda o'tkazilgan tarixiy qazilmalar natijasida topilgan dutorga, surnay, qonunga, nayga o'xshash sozlar, toshlarga o'yib bitilgan sozandalarning soz chalib turganidagi tasvirlari, miniatyura asarlaridagi sozanda va hofizlarning rasmlari o'lkamizda ijrochilik san'ati qadimdan rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Sharq xalqlarining musiqiy merosi bo'lmish Maqom, Mug'am, Dastgox, Navba, Raga, Kyui kabi ijrochilikning murakkab turkumlari avloddan - avlodga og'zaki ravishda o'tib kelgan. Tarixiy manbalar, bilimdon ustoz san'atkorlarning fikri hamda ilmiy tadqiqotlarga qaraganda, XIII-XVII asrlarda O'rta Osiyo, Xuroson va Ozarbayjon xalqlari musiqasida quyidagi o'n ikki (Duvozdax) maqom mavjud bo'lgan. Bular «Ushshoq», «Navo», «Buslik», «Rost», «Husayniy», «Xijoz», «Rohaviy», «Zango'la», «Iroq», «Isfahon», «Zirafqand», «Buzurg».

Yana bir tarixiy manbaga murojaat qiladigan bo'lsak, ulug' olim Mirzo Ulug'bek Tarag'ayning «Risola dar ilmi musiqa» (Musiqa ilmi haqida risola) kitobining «Dar bayoni duvozdax maqom» (o'n ikki maqom zikrida) bobida shunday fikrlar keltiriladi: Xoja Abdulqodir ibn Adurahmon Marog'iy, Xoja Sayfidin Abdulmo'min, Sulton Uvays Jaloiriyning so'zlariga qaraganda, avvalda maqomlar ettita bo'lg'on: «Maqomi rost», «Maqomi Ushshoq», «Maqomi Navo», «Maqomi Rohoh», «Maqomi Xijoz», «Maqomi Iroq», «Maqomi Husayniy». Yana ushbu risolada ulug' bobomiz Ulug'bekning o'zi tanbur va nog'orani juda yaxshi chalganligini, «Bulujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon», «Usuliy otlig'» singari kuylarni ixtiro qilganligini ta'kidlab o'tadi.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, shunday xulosa qilish mumkinki, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan xoli emas.

Natijada XVIII asrga kelib Buxoroning «Shashmaqom» (Olti maqom)i: «Buzruk», «Rost», «Navo», «Dugoh», «Segoh», «Iroq» maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning «Chor maqom»i (To'rt maqom), «Dugoh husayniy»ning yettita yo'li, «Chorgoh»ning oltita ijrochilik yo'li, «Shaxnozi Gulyor»ning oltita ijrochilik yo'li hamda «Bayot» yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS // " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – C. 191-194.
2. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 31-36.
3. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1067-1071.

4. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – С. 26-28.
5. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatining Tutgan O'rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
6. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 1(2), 22–24. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459>
7. E Ortikov. Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher <http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948>
8. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 60-66.
9. Mustafaev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 1007-1012
10. Мустафаев Б. “БУХОРЧА” ВА “МАВРИГИ” МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
11. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
12. Мустафаев Б. БОШЛАНГИЧ СИМФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
13. Мустафаев Б. УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.